

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухраҳон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Mo‘minov Zokirjon

TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARIDA IJTIMOY MOBILLIKNI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....5

2. Qosimov Vohid

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA “KOMPLAENS-NAZORAT” TIZIMI ROLINI OSHIRISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY, IJTIMOY VA HUQUQIY ASOSLARI.....12

3. Mannanova Nilufar

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATIDA MILLIY-MENTAL XUSUSIYATLARNI E‘TIBORGA OLISHNING AYRIM JIHATLARI.....19

4. Kulbekova Nasiba

TA‘LIM TRANSFORMATSIYASI: INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, YANGI PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR HAMDA IQTISODIYOT SOHALARINING STRATEGIK RIVOJLANISH VAZIFALARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI.....26

5. Abduvaliev Fatxulla

YUQORI SINIF O‘QUVCHILARI O‘RTASIDA TA‘LIM MIGRATSIYASI TOMON IJTIMOY HARAKATLANISH SABABLARI TAHLILI.....33

6. Akramov Xusan

RATSIONAL TAFAKKUR: ISLOMIY AN‘ANA VA SOTSIOLOGIK NAZARIYALAR KONTEKSTIDA TAHLIL.....46

7. Муллағалиева Фануза, Румянцева Екатерина

ОПЫТ ЖЕНЩИН В НАУКЕ УЗБЕКИСТАНА.....52

8. Mingbayeva Nozimaxon

JAMOATCHILIK FIKRINING FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI IMKONIYATLARI.....59

9. Бозорова Ўлмасхон

БОШҚАРУВДА ЁШ РАЎБАРЛАР ИЖТИМОЙ КАПИТАЛИНИНГ АЎАМИЯТИ.....66

10. Mannanova Nilufar

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI KO‘NIKMALARINI BAHOLASHDA DREYFUS MODELIDAN FOYDALANISH.....73

11. Tangirova Mavjuda

AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING ASOSIY OQIMLARI VA ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI.....80

12. Mirsoliyeva Nargiza

YAPON CHOY MAROSIMINING IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI.....88

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Qosimov Vohid,

“O‘ZBEKNEFTGAZ” AJning

“Moliyaviy komplaens-nazorat departamenti”

rahbari o‘rinbosari

e-mail: @mail.ru

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA “KOMPLAENS-NAZORAT” TIZIMI ROLINI OSHIRISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY, IJTIMOY VA HUQUQIY ASOSLARI <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17048576>**ANNOTATSIYA**

Bugungi kunda korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlarini, uning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo‘yicha yangi tizimli choralar ko‘rishni va korrupsiyaga qarshi kurashuvchi tizim faoliyatini yanada rivojlantirish uchun ushbu masalaga ilmiy yondashuvni va turli tadqiqotlarni olib borish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Maqolada muallif tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashda “komplaens-nazorat” tizimi rolini oshirishga oid tadqiqotlarning nazariy, ijtimoiy va huquqiy asoslarini tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada korrupsiya tushunchasiga sharhlar berilib, korrupsiyaga qarshi kurashishga doir manbalar tahlil qilinadi. Bundan tashqari korrupsiyaga qarshi borasidagi faoliyatning huquqiy asoslari, korrupsion holat uchun javobgarlik tortilishga doir normalar tahlili hamda korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik fikrining ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish, komplaens-nazorat, islohot, korrupsion harakatlar, korrupsiya tarixi, jinoyat, korrupsiyaviy jinoyatlar, adolat, farovonlik, jamoatchilik fikri, adolatli davlat boshqaruvi, ijtimoiy jarayonlar, sotsial guruhlar, samarali davlat boshqaruvi, siyosat, fozil jamiyat, adolat.

Косимов Вохид,

заместитель начальника

АО «УЗБЕКНЕФТЕГАЗ»

«Департамента финансового комплаенс-контроля»

e-mail: @mail.ru

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ, СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ПОВЫШЕНИЮ РОЛИ СИСТЕМЫ КОМПЛАЕНС-КОНТРОЛЯ В БОРЬБЕ С КОРРУПЦИЕЙ**АННОТАЦИЯ**

Сегодня необходимо принятие новых системных мер по искоренению всех проявлений коррупции, её причин и условий, а также дальнейшее развитие деятельности антикоррупционной системы, научный подход к данному вопросу и проведение различных исследований. В статье анализируются теоретические, социальные и правовые основы исследования автора о повышении роли системы «комплаенс-контроля» в борьбе с

коррупцией. В статье также даются комментарии к понятию коррупции и анализируются источники по борьбе с коррупцией. Кроме того, раскрываются правовые основы антикоррупционной деятельности, анализируются нормы об ответственности за коррупцию, а также значение общественного мнения в борьбе с коррупцией.

Ключевые слова: коррупция, борьба с коррупцией, комплаенс-контроль, реформа, коррупционные действия, история коррупции, преступность, коррупционные преступления, правосудие, благосостояние, общественное мнение, справедливое государственное управление, социальные процессы, социальные группы, эффективное государственное управление, политика, добродетельное общество, справедливость.

Kosimov Vohid,

Deputy Head of JSC UZBEKNEFTEGAZ
“Department of Financial Compliance-Control”
e-mail: @mail.ru

THEORETICAL, SOCIAL AND LEGAL BASIS OF THE RESEARCH TO INCREASE THE ROLE OF THE COMPLIANCE-CONTROL SYSTEM IN THE FIGHT AGAINST CORRUPTION

ABSTRACT

Today, it is necessary to adopt new systemic measures to eradicate all manifestations of corruption, its causes and conditions, as well as further development of the anti-corruption system, a scientific approach to this issue and conducting various studies. The article analyzes the theoretical, social and legal foundations of the author's research on increasing the role of the "compliance control" system in the fight against corruption. The article also provides comments on the concept of corruption and analyzes sources on the fight against corruption. In addition, the legal basis for anti-corruption activities is disclosed, the rules on liability for corruption are analyzed, as well as the importance of public opinion in the fight against corruption.

Keywords: corruption, fight against corruption, compliance control, reform, corrupt actions, history of corruption, crime, corruption crimes, justice, welfare, public opinion, fair public administration, social processes, social groups, effective public administration, politics, virtuous society, justice.

KIRISH

Korrupsiya, xalq atamasi bilan aytganda, lavozimidan yoki unga berilgan vakolatdan o'z manfaatlarini ko'zlash, mansab suiiste'moli, poraxo'rlik, tanish-bilishchalik qadimdan ijtimoiy xavfli illatlardan biri bo'lib, bu illat, barcha davrlarda dunyoning turli mintaqa va davlatlarida turli darajada va xususiyatlarda namoyon bo'lib kelgan, unga qarshi qurash choralari ham turli daraja va uslublarda kechgan. Afsuski, korrupsiya hozirgi kunda xam irodasiz odamlar hisobiga katta muammo va ijtimoiy xavf ko'rinishida saqlanib qolmoqda.

Yangi O'zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi nafaqat jahon iqtisodiyotidagi integratsiya jarayonlarida ishtirok etishiga, balki davlat xizmatchilari orasida korrupsiyani tarqalishidan kelib chiqadigan xatarlarning oldini olish uchun huquqiy vositalarning O'zbekiston haqiqatiga kirib borishiga olib keldi. Bugungi kunda, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etishda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga aylandi. Bu sa'y-harakatlar esa, korrupsiyaning har qanday ko'rinishlarini, uning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha yangi tizimli choralar ko'rishni va korrupsiyaga qarshi kurashuvchi tizim faoliyatini yanada rivojlantirish uchun ushbu masalaga ilmiy yondashuvni va turli tadqiqotlarni olib borish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

METODOLOGIYA

Korrupsiyaga qarshi kurashda “komplaens-nazorat” tizimi rolini oshirishga oid tadqiqotlarning nazariy, ijtimoiy va huquqiy asoslari nazariy va metodologik asosni tahlil qilishda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning asarlari, Sh.Qobilovning Milliy xavfsizlikning iqtisodiy muammolari nomli monografiyasi, B.Shamsutdinovning Korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik nomli monografiyasi, M.Bekmurodovning Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi nomli monografiyasida korrupsiyaning o'zisha xos jihatlari, ildizlari ko'rinishlari hamda korrupsiyaga qashi kurashda komplaens nazorat tizimini yo'lga qo'yishning ijtimoiy ahamiyati atroflicha tahlil qilingan [1].

ASOSIY QISM

Komplaens yoki komplaens nazorat (inglizcha «compliance» so'zidan «muvofiglik») – bu tashkilot xodimlari ish faoliyatining milliy va ratifikatsiya qilingan xalqaro qonunchilikka muvofiq ish yuritishidir. Shuningdek, qonunga zid bo'lgan xatti-harakatlarini oldini olish va qonunchilikka, sanoat standartlariga va ichki tartib-qoidalarga (nizomlar, yo'riqnomalar, qoidalar va boshqalar) rioya qilish asosida korporativ ishbilarmonlik etikasini tatbiq qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir.

2016-yilning oktyabr oyida mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev tashabbus ko'rsatdi, o'sha paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchisi edi. Sh.Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini kiritish haqida qonunchilik tashabbusini bildirdi. Ushbu qonun qisqa vaqtda ishlab chiqildi va 2017-yil 3-yanvardan kuchga kirdi. Qonun umumiy qoidalar, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, javobgarlikning muqarrarliligi, yakunlovchi qoidalar kiritilgan 34 moddani qamrab olgan 6 bobdan iborat huquqiy mexanizm yaratildi [2].

Yangi O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi eng katta amaliy islohotlardan yana biri bu – “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi” farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilganligidir. Shuningdek, mamlakatimizda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, yangi davlat va yangi jamiyat qurilishida barcha sohalarida korrupsiya omillariga chek qo'yishga qaratilgan o'ndan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, “Yul xaritalari” hamda chora-tadbirlar rejaları tasdiqlandi [3].

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar qanchalik harakat qilmasin, xalqimiz bu jirkanch illatga murosasiz bo'lmas ekan, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatmas ekan, bu baloga qarshi samarali kurashni tashkil eta olmaymiz. Bu illat bilan nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, balki har bir jamoa jiddiy kurashishi kerak. Shuning uchun har bir davlat idorasida jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'z ichki dasturlari bo'lishi shart” [4].

“Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'yan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak”. Ta'kidlab o'tgan so'zlari korrupsiyaga qarshi kurashuvchi tashkilotlar hamda barcha tashkilotlardagi ichki nazorat va komplaens nazorat bo'limlari faoliyatini tizimli tahlil qilish hamda ushbu masalaga ilmiy yondashuvni taqozo qiladi [5].

Aholida korrupsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatlarini shakllantirish faqat tashkilot, idora yoki korxonalarda emas, balki, undan bir muncha oldinroq ya'ni kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotlarida “bir jinoyatchi bir odamni halok qilishi mumkin, bir korrupsioner davlatni halokatga olib borishi mumkin”, degan shior ostida ularga mavzuga doir bilim va tajribalarini o'rgatish, turkum ilmiy, ipmiy-uslubiy, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar, darsliklar orqali ularda murosasizlik munosabatlarini shakllantirish, bir so'z bilan aytganda, ularni halollik vaksinasi bilan noorganik usulda emlash orqali jamoatchilik fikrini shakllantirish lozim. Tarixda bizga ma'lumki, qadimdan adolatli davlat boshqaruvi va farovon jamiyatni faqatgina adolatli hukmdorlarga qura olgan.

Sharqning buyuk mutafakkirlari ham azaldan poraxo'rlik va korrupsiyadan xoli davlat va jamiyat qurish tartibotlarini o'z zamonasining hukmdorlariga uqtirib kelganlar.

“Korrupsiya” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi lotincha “corruptio” so‘zidan olingan bo‘lib, pora berib sotib olish, buzilish, ishdan chiqish, axloqiy (ma‘naviy) buzilish ma‘nolarini anglatadi. Shuningdek, korrupsiya so‘zining zamonaviy talqinlarida ishonib topshirilgan vakolatlarni shaxsiy manfaatlari uchun suiiste‘mol qilish degan tushunchalarni ham beradi.

Qadimgi Sharq xalqlarining diniy-falsafiy aqidalari, ta‘limotlarida adolatli davlat boshqaruvi va farovon jamiyatni barpo etishga doir ta‘limotlarni o‘rganishda Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avesto, Hind vedalari, Xitoy qo‘lyozmalari, Sug‘d yozuvlari (saturalari), Xamurappi qonunlari va Antik davri faylasuflarining ta‘limotlari birinchi manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ilohiy kitoblar Zabur, Tavrot, Injil va Qur‘oni Karim oyatlarida ham aynan adolatli boshqaruv va farovon jamiyat haqidagi ilohiy tartibotlarni ko‘rish mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga doir faoliyatning tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, miloddan avvalgi XXIV asrda Lagash shahri (davlati)ning hukmdori Uruinim rasman davlat tashkiloti sifatida yo‘lga qo‘ygan. Mamlakatda poraxo'rlik va mansabdan foydalanish holatlarini qattiq qoralab, davlat boshqaruvini, sud tizimini korrupsiyadan holi organlarga aylantirgan birinchi hukmdor sanaladi. Miloddan avvalgi IV asrda Qadimgi Hindistondagi Bxarata davlatining vazirlaridan biri tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi birinchi traktat (normalar to‘plamini “Arta Shastra Kautilya” taxallusi bilan nashr etgan. Uyda u “Qirol mulki, hech bo‘lmaganda ozgina bo‘lsa xam, ushbu mulk uchun mas‘ul bo‘lganlar tomonidan o‘zlashtirilishi mumkin emas», degan, normani kiritgan. Yana bir e‘tiborli jihati, bu qonun va pandnomaning asosiy maqsadi qirol, ya‘ni davlat mulki muhofazasiga qaratilgan. Xuddi shunday korrupsiyaga qarshi kurash tizimini Qadimgi Misr va Qadimgi Rim davlatlarida ham bo‘lganligini ko‘plab tarixiy manbalar tasdiqlaydi [6].

Islom dunyosida ham korrupsiya qoralangan va man etilgan illatlardan bo‘lib, Qur‘oni Karimning “Baqara” surasida “Mol va boyliklaringizni o‘rtalaringizda botil (harom) yo‘llar bilan yemangiz. Shuningdek, bila turib, odamlarning haqlaridan bir qismini gunoh yo‘l bilan yeyish maqsadida uni hokimlarga havola etmangiz” oyat musulmon huquqida korrupsiyaning har qanday ko‘rinishini taqiqlovchi normalarni kiritishga asos bo‘lgan [7].

Pora arab tilida “rishva” deb ataladi, shar‘iy istilohda esa, “Pora-haqni yo‘qqa chiqarish va botilni yuzaga chiqarish uchun beriladigan narsadir”. Abdulloh ibn Amr roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh solallohu alayhi vasallam: “Pora beruvchiga va pora oluvchiga Allohning la‘nati bo‘lsin”, dedilar. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam ikkovlarini ham ushbu harom ishni qilganlari uchun la‘natlamogdalar. Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning la‘natlari juda og‘ir jazodir. Chunki, la‘nat birovni Allohning rahmatidan uzoq bo‘lishini so‘rashdir. Yana bir hadisda Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallam: “Pora beruvchi ham, oluvchi ham, o‘rtada turuvchi ham jahannamga tashlanadi”, dedilar [8].

G‘arb mumtoz mutafakkirlaridan Nikkolo Makiavelli o‘zining “Hukmdor” asarida korrupsiyaga quyidagicha ta‘rif bergan. Jumladan, u korrupsiyani iste‘mol kabi kasallik bilan taqqoslaydi: “Har qanday poraxo'rlikni avvaliga tanib olish kiyin, ammo davolash osonroq. Agar unga e‘tibor berilmasa, uni tanib olish oson, ammo davolash qiyin bo‘ladi” [9]. Shuningdek, mutafakkir «Odamlarning xatti-harakatlarini bir-xil xirs va intilishlar belgilaydi. Inson tabiatining zaminida amalparastlik, g‘arazgo‘ylik yotadi. Jamiyatdagi ba‘zi odamlar subutsiz, noshukur, qo‘rqoq, munofiq, ichi qora, boshqalarni ko‘ra olmaydigan xossalarga egadirlar. Qobiliyati cheklangan bo‘lsa ham o‘z imkoniyatlari chegarasidan tashqaridagi xohishlariga erishish uchun hech narsadan tab tortmaydilar. Ular doim hozirgi kundan norozi, o‘tmishni maqtaydilar, taqlid qilishni sevadilar, lekin yaxshi narsalarga nisbatan yomon odatlarni tezroq o‘zlashtiradilar. Inson – o‘zining dunyoga kelishini batamom asosli ravishda katta yig‘i bilan olqishlovchi eng ojiz va sho‘rpeshona mahluqdir», deb ta‘riflagan.

Har qanday korrupsion holat jamiyatda adolatsizlikka keng sharoit yaratadi. Demak, korrupsiyaga nisbatan befarq bo‘lish – jamiyatda adolatsizlikni avj olishiga hissa qo‘shish bilan barobardir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev adolatli davlat tushunchasiga quyidagicha ta‘rif bergan: «Adolatli davlatning xususiyati shundayki, u avvalo qonun ustuvorligini qaror toptirishi

kerak. Shu bois, biz o‘z faoliyatimizning birinchi kunidan «Xalq davlatga emas, davlat xalqqa xizmat qiladi», degan siyosatni, ya’ni, inson qadrini ulug‘lash, inson manfaatini ta’minlash tamoyilini eng ustuvor vazifa sifatida belgilab oldik», degan so‘zlari aynan qadimgi davrlardan toki, shu vaqtgacha adolatli davlat tamoyili o‘zbek davlatchiligi aynan adolat tamoyili asosida faoliyat yuritganligini ko‘rish mumkin [10].

Demak, Prezidentimizning ushbu so‘zlardan shuni anglash mumkinki, adolatning huquqiy ahamiyati barchani qonunlarga qat’iy rioya etishi va siyosiy jihati esa davlatni adolat qoidalari va tamoyillari asosida boshqarish hamda ushbu adolatli davlat boshqaruvni amalga oshirish uchun davlatning yagona manbasi bo‘lgan xalqni o‘z hayotidan rozi bo‘lib yashashlari uchun munosib sharoit yaratishdir. Bir so‘z bilan aytganda aynan mana shunday muvofiqlik bu tashkilotlardagi komplaens nazorat tizimining naqadar samarali faoliyat ko‘rsatishiga bog‘liq.

Sotsiolog-olim M.Bekmurodov adolat tushunchasiga «Adolat inson qalbidagi eng asosiy tuyg‘udir, jamiyatda barcha tushunchalarning eng asosiysi va oliyjanobidir. Adolat har doim ommani katta ishtiyoq bilan talab qiladigan ehtiyojdir. U diniy e’tiqodimiz mohiyatining mazmunidir, xuddi shu bilan birga, u ehtiyotkorlikning ham bir ko‘rinishidir. Adolat chuqur yashirin e’tiqod obyekti va barcha ilmlarning boshlanishi, o‘rtasi va oxiridir», deb ta’rif bergan [11].

Korrupsiyaga qarshi borasidagi faoliyatning huquqiy asoslariga kelsak, O‘zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonunining 6-moddasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati davlat dasturlari va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Unda, davlat dasturlari va boshqa dasturlar qonunning qoidalari samarali ijro etilishini ta’minlash, korrupsiyaning holati xamda tendensiyalaridan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi ko‘rsatilgan. Mazkur qoida talablariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevral kuni “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2752-sonli Qarori bilan “2017-2018-yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturi”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tarkibi” hamda “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi to‘g‘risida»gi Nizom tasdiqlandi [12].

Qonunning samarali ijrosini ta’minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-sonli Farmoni bilan “2019-2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi” hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlanib, uning asosiy vazifalari belgilab berildi [13].

O‘zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar korrupsiyaviy jinoyatlarning sodir etilish dinamikasiga muayyan darajada ta’sir qilib, ushbu jinoyatlar sonining qisqarishiga olib keldi. Jumladan, 2017-yilda turli toifadagi 3013 nafar mansabdor shaxslarga nisbatan jami 2076 ta, 2018-yilda 2066 nafar shaxsga nisbatan 1469 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, 2019-yilda bu ko‘rsatkich 1520 nafar shaxsga nisbatan 994 tani tashkil qildi. Mazkur jinoyat ishlari doirasida 2017-yilda 2881 nafar, 2018-yilda 1907 nafar, 2019-yilda esa 1339 nafar shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilgan [14].

Mansabdor shaxslarning jinoyatlari oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga 2017-yilda 142 mlrd. 662 mln. so‘m, 2018-yilda 559 mlrd. 174 mln. so‘m, 2019-yilda esa 1 trln. 853 mlrd. so‘m miqdorida moddiy zarar yetkazilgan. Shuningdek, mazkur davrda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o‘rni muayyan darajada yaxshilandi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi “Transparency International” korrupsiyaga qarshi tashkilotining Korrupsiyani qabul qilish indeksi (Corruption Perception Index)da 2016-yilda 21 ball bilan 176 davlat ichida 151-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2019-yil natijalariga ko‘ra, 25 ball bilan 180 mamlakat ichida 153-o‘rinni egallagan [15].

Milliy qonunchiligimizdagi korrupsiyaga oid normalarni yanada takomillashtirish, jinoyat uchun jazo muqarrar ekanligini odamlarning ongiga qanchalar mustahkam singdirish, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi tashkilotlar faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, korrupsion faoliyat uchun jinoiy jazolarni yanada kuchaytirish, korrupsiya elementlarining kompleks o‘rganish, sohaga oid xalqaro

standartlar hamda ilg'or xorijiy tajribaning O'zbekiston sharoitiga moslashtirish kabi masalalarni ilmiy jihatdan tadqiq qilish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, korrupsiyaga qarshi kurashishdan ko'ra uni oldini olish va va jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik fikrini shakllantirish, har bir davlat xizmatchisini yoki mansabdor shaxslarni halollik vaksinasi bilan emlash kutilgan natijani berishi mumkin. Bu adolatli davlat boshqaruvi va farovon fuqarolik jamiyat demakdir.

XULOSA

Jahon bankining ma'lumotlariga kura XX asrning boshida «korrupsiya dunyo yiliga 80 mlrd. AQSh dollari miqdorida zarar keltirgan» bo'lsa, 2016-yilga kelib, dunyoda yaratilayotgan YaIMning 2%ni pora sifatida yig'ilgan mablag'lar tashkil qiladi. Bu 1,5-2 trln. AQSh dollari degani. 2019-yil ostonasida bu ko'rsatkich 2,5 trln. AQSh dollariga yetganligini hisobga olib qaraydigan bo'lsak, korrupsiya ma'lum bir davlatning muammosi emas, balki, bu illat global ko'rinishga ega bo'lib, ko'plab mamlakatlarning iqtisodiyotiga, jamiyatning bir butunligiga va farovonlikka salbiy ta'sir qilib kelayotgan katta muammodir.

2017-yilda O'zbekistonda siyosiy vaziyat o'zgarib, yangi hukumat shakllangandan so'ng, korrupsiyaga qarshi kurash faoliyati tizimlashtirilib, uning huquqiy asoslari qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlandi. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga shaxsan Prezidentimizning o'zlari bosh bo'lib turganligi va ko'plab islohotlarning tashabbuskori bo'layotganligi bir tarafdin O'zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirayotgan bo'lsa, ikkinchi tarafdin O'zbekiston jamiyatining jamoatchilik fikri ijobiy tarafga o'zgarib, aholida korrupsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatlarini shakllanayotganidan dalolat beradi.

Albatta, bunday ulkan ishlar xalqaro hamjamiyat tomonidan ham e'tirof etilayotgani buning yaqqol misoli bo'la oladi. Bunga misol qilib, 2023-yilning 19-dekabr kuni "Tashkent city" xalqaro ishbilarmonlik markazi hududida halollik, pok amal va niyatlarni, korrupsiyaga nisbatan mutlaq toqatsizlikni hamda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi sa'y-harakatlarini ifodalovchi monumentni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev va Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy birgalikda ochilishini keltirib o'tish mumkin. O'zbek davlatchilik tarixidan shu narsa ma'lumki, o'zbek davlatchiligi har doim korrupsiyaga murosasiz va toqatsiz bo'lgan. Bunga asosiy sabablar, azaliy insonparvarlik qadriyatlarimiz, ma'rifatli e'tiqodimiz, doimiy ravishda adolat hamda farovonlikka bo'lgan buyuk intilishimizdir.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Қобилов Ш.Р. Коррупция: сабаблари, шарт-шароитлари, оқибатлари ва олдини олиш йўллари. Монография / – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси. – 368 б; Шамсутдинов Б.С. Коррупциявий жиноятлар учун жавобгарлик. Монография // Масъул муҳаррир: Д.Б.Базарова, ю.ф.н., профессор в.б. – Тошкент: Тошкент давлат юридик университети, 2020. – 120 б; Мирзиёев Ш.М. 3-том. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. М 54. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – Б.400; Мирзиёев Ш.М. 4-том. Миллий тикланишдан-миллий юкланиш сари. М 54 – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2020. – Б.408; Бекмуродов М.Б. Замонавий бошқарув социологияси. Монография. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2020. – Б.10.

2. 2017 йил 3 январдаги ЎРҚ-419-сонли Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонуни. <https://www.lex.uz/acts/3088008>

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 июндаги ПФ-6013-сонли “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги” фармони <https://lex.uz/ru/docs/4875784?ONDATE=08.11.2023%2000>

4. Мирзиёев Ш.М. 3-том. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. М 54. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – Б.65.

5. Мирзиёев Ш.М. 4-том. Миллий тикланишдан-миллий юкланиш сари. М 54 – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2020. – Б.38.
6. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/korrupsiya-uz/>
7. Қуръони Карим “Бақара” сураси 188 оят. <https://oliymahad.uz/11337>.
8. Ислом шариати ҳамда мамлакат қонунларида коррупция ва порахўрлик иллатини қораланиши. <https://oliymahad.uz/11337>
9. Никколо Макиавелли «Государь». / Пер. Г.Муравьевой «Художественная литература», 1982. – С.38.
10. Мирзиёев Ш.М. Инсон кадри, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатлари учун. М 54 – Тошкент: «O‘zbekiston» нашриёти, 2022. – Б.145.
11. Бекмуродов М.Б. Ижтимоий тараққиёт ва жамоатчилик фикри//Монография. – Тошкент: «Халқ таълими», 1997. – Б.33.
12. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги ЎРҚ-419-сонли Қонуни. URL: <https://lex.uz/docs/3088008>.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 майдаги “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5729-сонли фармони. URL: <https://lex.uz/docs/4355387>
14. Шамсутдинов Б.С. Коррупциявий жиноятлар учун жавобгарлик. Монография // Масъул муҳаррир: Д.Б.Базарова, ю.ф.н., профессор в.б. – Тошкент: Тошкент давлат юридик университети, 2020. – Б.6-7.
15. CPI 2019 Global Highlights. URL: <https://www.transparency.org/cpi2019? /news/feature/cpi>.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000